

“TBC Bank” ATBning “Salom TBC” dasturini o‘tkazish qoidalari

MUNDARIJA

1. Umumiy shartlar;
2. Atama va ta’riflar;
3. Dastur tashkilotchisi;
4. Dasturda ishtirok etish tartibi;
5. Ishtirokchilar huquqlari va majburiyatlari;
6. Bank huquqlari va majburiyatlari;
7. Javobgarlik;
8. Nizolarni hal etish tartibi;
9. Boshqa shartlar.

1. UMUMIY SHARTLAR.

1.1. Mazkur “TBC Bank” ATB (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi) “Salom TBC” dasturining Qoidalari (keyingi o‘rinlarda “Dastur” deb ataladi) Bank Mijozlarining Dasturda ishtirok etish shartlarini va tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu Dastur Qoidalari lotereya emas yoki Dasturda ishtirok etish bilan bog‘liq holda, Dastur ishtirokchilari uchun mol-mulk xavfini yuzaga keltiruvchi tavakkalchilik asosida yaratilgan o‘yin emas. Dasturni o‘tkazish tartib-taomili ishtirokchilar tomonidan biror-bir to‘lovni kiritishi bilan bog‘liq emas.

1.3. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolar Kodeksining 367-moddasiga va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Qoidalar Bankning rasmiy saytida joylashtirilgan - www.tbcbank.uz.

1.4. Dasturning boshlanish sanasi: 2023 yil 4 sentabr; Dasturning tugash sanasi: 2023 yil 29 sentabr. Dastur amal qilish muddati: Dastur har dushanba va juma kunlari, Boshlangan sanadan Tugash sanasigacha amal qiladi, shu jumladan.

1.5. Dastur o‘tkazish joyi: O‘zbekiston Respublikasi hududi.

1.6. Identifikatsiya/verifikatsiya jarayonidan muvaffaqiyatli o‘tgan va Dasturning amal qilish muddati davomida bank mijoziga aylangan TBC UZ ilovasining istalgan foydalanuvchisi Dastur Ishtirokchisi bo‘lishi mumkin.

1.7. Bankning xizmatlari va mahsulotlarini olish, ulardan foydalanish, shu jumladan verifikatsiya jarayonidan o‘tish Bankning Bosh shartlari (keyingi o‘rinlarda “BSh” deb yuritiladi) va Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan va/yoki Bankning mobil ilovasi orqali ko‘rib chiqish mumkin bo‘lgan Bank mahsulotlarining boshqa shartnomalari bilan tartibga solinadi.

1.8. Bank mijozi TBC UZ mobil ilovasidagi “Verifikatsiya” tugmasini bosish orqali Dastur amal qilish muddati davomida ushbu Dastur shartlarini avtomatik ravishda qabul qiladi va mazkur Dastur qoida va shartlariga rozilik bildiradi.

2. ATAMA VA TA’RIFLAR

Bank	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022 yil 17 martdagi 86-sonli litsenziyasi.
Dastur	“TBC Bank” ATBning “Salom TBC” dasturi
Bankning Mijozi	Jismoniy shaxsning shaxsini Bank tomonidan verifikatsiya jarayonidan muvaffaqiyatli o‘tgan va Bank shartnomalariga muvofiq Bank bilan huquqiy munosabatlar o‘rnatgan jismoniy shaxs.
Ishtirokchi	Bank mijoziga muvaffaqiyatli aylangan Ilova foydalanuvchisi.

Ilova	AppStore va Playmarket, AppGallary platformalarida ishlovchi qurilma-smartfonlarda foydalanish mumkin bo'lgan TBC UZ mobil ilovasi.
Verifikatsiya	Axborotning ishonchliligini va jismoniy shaxs bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatish bo'yicha qonuniy cheklovlarning yo'qligini aniqlash jarayoni, va bu jarayon mijoz BShning 9-bobiga muvofiq mijozning raqamli identifikatsiyasidan o'tgandan keyin Bank tomonidan amalga oshiriladi.
Muvaffaqiyatli verifikatsiya	Ilova Foydalanuvchisi tomonidan raqamli identifikatsiyani muvaffaqiyatli o'tish va Verifikatsiya natijalari Bank tomonidan tasdiqlanishi.

3. DASTUR TASHKILOTCHISI.

- 3.1. Dastur tashkilotchisi - Bank.
- 3.2. Bankning rekvizitlari: 100015, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 10B-uy. Telefon: +99878 777 2727. Pochta: contact@tcbank.uz

4. DASTURDA ISHTIROK ETISH TARTIBI.

- 4.1. Ishtirokchiga aylanish uchun Ilova Foydalanuvchisi ushbu Qoidaning 1.6-bandida belgilangan shartlarga rioya etishi zarur.
- 4.2. Muvaffaqiyatli verifikatsiyadan o'tgan taqdirda, aksiya Ishtirokchisiga ID-raqam (Chipta) beriladi. Bitta Ishtirokchi olishi mumkin bo'lgan maksimal chiptalar soni - 1 (bitta).
- 4.3. Chipta Ishtirokchiga sovrin uchun da'vogarlar ro'yxatida bo'lish huquqini beradi. Muvaffaqiyatli verifikatsiya kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida Bank aloqa kanallari orqali unga berilgan Chipta haqida Ishtirokchini xabardor qiladi.
- 4.4. Sovrin Dastur tugash sanasidan keyin 10 (o'n) ish kuni ichida jonli efirdagi barcha Dastur Ishtirokchilari orasidan tasodifiy tanlash yo'li bilan o'ynaladi.
- 4.5. Bank har bir g'olib Ishtirokchini Sovrin yutganligi to'g'risida mijoz ilovada ro'yxatdan o'tgan raqamga SMS yuborish va/yoki mobil ilovadagi Push-xabarnomadan foydalanish orqali, shuningdek, Bankning boshqa aloqa kanallari orqali xabardor qiladi. Bank yutuq o'yinlari natijalari e'lon qilingan kundan boshlab bir oy ichida dastur g'oliblariga Sovrinni topshirishga haqli.

5. ISHTIROKCHILAR HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.

- 5.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:
 - Bank qoidalari va shartnomalarida belgilangan hajmda va tartibda Dastur to'g'risida ma'lumot olish;
 - ushbu Qoidalarning 1.6-bandiga rioya qilgan holda, ushbu Qoidalarga muvofiq Ishtirokchi maqomini olish;
 - Ishtirokchi Sovrinni uchinchi shaxs foydasiga rad etishga haqli emas;
 - BShlarga muvofiq muvaffaqiyatli identifikatsiyadan o'tgan, ammo Ilovadagi texnik xatoliklar tufayli Muvaffaqiyatli verifikatsiyadan o'tmagan taqdirda Dasturda ishtirok etish uchun da'vogar bo'lish.
- 5.2. Ishtirokchi ushbu Dastur qoidalari bilan tanishishi shart. Bank mijozining Dasturda ishtirok etishi avtomatik tarzda Bank mijozining ushbu Qoidalar bilan tanishganini va to'liq roziligini bildiradi.

6. BANK HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

6.1. Bank Dasturni amalga oshirishi, shuningdek, ushbu Qoidalarga muvofiq chegirmalarni taqdim etish majburiyatlarini bajarishi shart.

6.2. Ushbu Dasturning 1.4-bandiga muvofiq butun Dasturning amal qilish muddati davomida Bank tomonidan bekor qilinishi mumkin emas. Bank, shuningdek, ushbu Dasturning amal qilish muddatini bir tomonlama tartibda uzaytirish huquqini o'zida saqlab qoladi, bu haqda Bank tomonidan mijozlarga istalgan aloqa kanallari orqali xabar beriladi.

6.3. Bank Dastur ishtirokchilarini identifikatsiyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida Dasturni amalga oshirish uchun anketalar yoki boshqa ma'lumotlar va hujjatlarni to'plash orqali ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash huquqiga ega.

6.4. Bank Dastur haqida qo'shimcha ma'lumotlarni <https://tbcbank.uz/> veb-saytida, shuningdek, Bank ofislarida e'lon qilish orqali bir tomonlama tartibda dastur shartlarini o'zgartirish, shuningdek, o'yin o'tkazish shartlarini uzaytirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

6.5. Bank xavf va suiiste'mollik bo'yicha tekshirish ishlarini o'tkazganidan so'ng, Mijoz Sovrinni olish uchun da'vogar bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, agar Bank Mijozi noqonuniy, shubhali va/yoki firibgarlik harakatlarini amalga oshirayotgan deb asosli ravishda hisoblasa, Bank Ishtirokchiga ushbu Qoidalar shartlarini bajarishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Biroq, Bank: (a) O'yinning istalgan natijalarini bekor qilish; (b) Mijozning Dasturda ishtirok etishini yoki o'yinda ishtirok etish uchun da'vogar bo'lishini taqiqlash; (c) Mijozning kelajakdagi aksiyalar va o'yinlardagi ishtirokini bloklash; va/yoki (d) Mijozning hisobini to'xtatib qo'yish, har bir holatda, agar u o'zining oqilona fikriga ko'ra, Mijozning xatti-harakatlari ushbu Qoidalarga zid va/yoki Mijoz Dastur shartlaridan noqonuniy foydalanayotgan yoki uni biron-bir tarzda suiiste'mol qilayotgan deb hisoblasa. Bunga quyidagilar kiradi, lekin ular bilan cheklanmaydi:

(i) bir nechta hisoblar ochish;

(ii) ro'yxatga olish vaqtida noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish;

(iii) ijtimoiy tarmoqlarda, veb-saytlarda, qidiruv tizimlarida yoki ommaviy tarqatish vositalarning har qanday shakli orqali yolg'on/noqonuniy/noto'g'ri ma'lumotlarni ommaviy ravishda taqdim etish;

(iv) hisobning haqiqiy egasi nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga foydalanish huquqi bilan ta'minlash.

7. JAVOBGARLIK.

7.1. Dastur g'olibiga Sovrinni topshirishga tayyorligi haqida e'lon qilingan vaqtdan boshlab Bankning Dasturni amalga oshirish bo'yicha majburiyati bajarilgan hisoblanadi.

7.2. Bank mazkur Qoidalar amal qilish muddati davomida yuzaga kelgan tizimlardagi texnik nosozliklar, kamchiliklar, xatolar bilan bog'liq ushbu Qoidalarga muvofiq majburiyatlar bajarmaganligi uchun javobgar emas.

7.3. Agar 7.2-bandda ko'rsatilgan vaziyatlar yuzaga kelsa, Bank texnik tizimlarida yuzaga kelgan xatolar, kamchiliklar va nosozliklarni bartaraf etish sana va muddatini Bank mustaqil ravishda belgilash huquqini o'zida saqlab qoladi.

7.4. Agar uchinchi shaxslarning qasddan va/yoki qasddan bo'lmagan xatti-harakatlari sabab Bank ushbu Qoidalarda belgilangan shartlarni bajara olmasa, Bank javobgar emas.

7.5. Mazkur Qoidalar asosida tartibga solinmagan boshqa masalalar Bankning Bosh Shartlari hamda Bank va Bankning Mijozi o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.

8.1. Ushbu Qoidalar kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq barcha nizoli masalalar do'stona yo'l bilan maslahat va muzokaralar yordamida hal qilinadi.

8.2. Agar Tomonlar nizo va kelishmovchiliklarni 8.1-bandiga muvofiq hal qilishga erisha olmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq Bankning rasmiy ro'yxatdan o'tgan manzilida hal qilinadi.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Ushbu Qoidalar 04.09.2023 yildan kuchga kiradi va Bank majburiyatlarini to'liq bajarguniga qadar amal qiladi, shu jumladan.

9.2. Ushbu Qoidalar Bankning rasmiy veb-sayti - www.tbcbank.uz da joylashtirilgan.

9.3. Dastur ishtirokchilari yuqoridagi saytda (yuqoridagi havolada) tegishli o'zgarishlarni tekshirish orqali Dastur shartlarining yangilanishini mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.

9.4. Bank xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari Dasturda qatnashish huquqiga ega emaslar.

9.5. Bank Mijozlari TBC UZ mobil ilovasining "Mulohazalar" bo'limida bu haqda yozgan holda ushbu Dasturda ishtirok etishni rad etishga haqli.